



**ANDIJON VILOYATI MUQADDAS QADAMJOLARI BO'YLAB
2 KUNLIK SAYOHAT
DASTURI**

"JOME" MEMORIY MAJMUASI



 09:00-09:30

Mazkur obyekt Andijon shahrining markazida joylashgan. Majmua avval madrasa keyinchalik, bozor, urush yillarida esa axoli turar joyi, so'ng omborxonasi, 1989-1995 yillar madrasa, 1995-2016 yillarda Adabiyot va san'at muzeyi sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng 1990-1993 yillarda xonaqoh to'liq ta'mirlangan. Ayni vaqtda mazkur obyekt hunarmandchilik rastalari, kuzatuv maydonlari faoliyat olib bormoqda.

 Andijon shahri 40.7891469813251, 72.34583532051063

ANDIJON VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI MUZEYI




 10:15-11:00

Farg'ona vodiysining boy tarixiga ega bo'lgan ilmiy-ma'rifiy maskan. Muzey xazinasidan o'lkashunoslik tarixi va tabiatini aks ettiruvchi 68 mingdan ziyod arxeologik, numizmatika va etnografiya yodgorliklari, noyob arxiv hujjatlari, qo'lyozma va etnografiya asarlari, fotomateriallar va boshqa muzey ashyolari, kolleksiyalari joy olgan.

 Andijon shahri 40.78887071096918, 72.34654319051418

ANDIJON JOME MASJIDI



 10:15-11:00

Bu joyda ilk masjid 1870 yilda tiklangan. Hozirgi masjid qurilishi 2018 yilda boshlanib, shu yil may oyida yakunlandi.

Yangi bino qadimiy chor ayvon va chor darvoza uslubida barpo etilgan. Uning ikki chetida balandligi 54 metrlik minoralar, asosiy binoning shift qismida diametri 18 metrli gumbaz qurilgan.

Andijon shahrining Eski shahar qismida joylashgan. Masjidning kirish qismi gumbazsimon bo'lib, qo'sh tomonida minoralar ko'tarilgan. Minora va masjid peshtoqlari sharqona bezaklar bilan bezatilgan. Ayni 15 ming nafar musulmonlar ibodat qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

 Andijon shahri 40.788459953282945, 72.33976615966537

XOVUSKON OTA ZIYORATGOHI




Xovuskon ota ziyoratgohi qadimdan mashhur bo'lib, odamlar tez-tez tashrif buyuradigan diqqatga sazovor maskanlardan biri hisoblanadi.

Rivoyatlarga ko'ra, ushbu ziyoratgohning vujudga kelishi VII asr oxiri – VIII asr boshlarida arablarning O'rta Osiyoga kirib kelishi davri bilan bog'liq. Xovuskon ota arab suvoriylari bilan birga ot minib Farg'ona vodiysiga keladi.

Vodiyning turli so'lim go'shalari, bog'-rog'larini kezib yurgan ushbu zot oxir-oqibat hozirgi Xovuskon ota maskaniga kelib joylashadi. Shu yerda umr kechirib, vafot etganidan so'ng dafn etiladi va ushbu joy keyinchalik ziyoratgohga aylangan.

 Paxtaobod tumani 40°57'26.2"N 72°25'30.3"E

XO'JA TAQSIM OTA ZIYORATGOHI



 **12:15-13:00**

Ziyoratgohga tashrif buyuruvchilar nigohi eng avvalo katta yo'l bo'yidagi qabriston chekasida qurilgan Xo'ja Taqsim ota maqbarasiga tushadi. Maqbara oddiy to'rtburchak, pishiq g'ishtdan qurilgan, kirish eshigi yog'och o'yakorligi uslubida, tomi gumbazli, oq ruh tunuka qoplangan, maqbara ichida qabr bor. Maydoni 15000,0 kv.m.ni tashkil qiladi.

 **Paxtaobod tumani 41°02'07.0"N 72°20'36.2"E**

 **13:00-14:00 TUSHLIK**

TESHIKTOSH ZIYORATGOHI




 **14:30-15:00**

Andijondan bir necha o'n kilometr uzoqlikda mahalliy aholi uchun muqaddas sanalgan Teshik-Tosh ziyoratgohi joylashgan. Tabiatning ko'p asrlik injiqlari sababli qoyalardan biri g'aroyib shaklga kirib, katta yumaloq teshik toshni hosil qilgan. Bu yerdagi oqsoqollarning aytishicha, agar biror kishi shu teshikdan o'tib, dardidan forig' bo'lishni so'rasa, darhol sog'ayib ketar ekan.

 **Jalaquduq tumani 40.847158, 72.609544**

QUTAYBA IBN MUSLIM ZIYORATGOHI




 **15:30-16:00**

Hazrati Qutayba ibn Muslim 72 hijriy (691 melodiy) yili Arab xalifasi Abdurahmon ibn Marvon tomonidan Xurosonga noib etib yuborilgan. 87 hijriy (706 melodiy yilda) Zarafshon vodiysini egallab, Poykentgacha keladi. 89 hijriy Marv, Keshga, 90 hijriy yili Buxoroni, 93 hijriy yili Xorazm va Samarqandni, 94 hijriy yili Hazrat Shosh (hozirgi Toshkent)ga undan Farg'ona vodiysiga va Xitoyning Qashqar hamda Urumchisigacha egallaydi. Qutayba ibn Muslim 715 yili Jalaquduq tumani "Qilichmozor" MFY hududiga dafn qilingan.

 **Jalaquduq tumani 40.7355902,72.6086624**

BIBI SESHANBA ZIYORATGOHI





 **16:15-17:00**

Bibi seshanba ziyoratgohi 200 yil avval tashkil etilgan bo'lib, hozirda ziyoratgohga mahalliy hamda xorijiy sayyohlar buloq suvlaridan shifo olish uchun keladilar. Ziyoratgoh atrofida shifobaxsh hisoblangan "Ko'k buloq", "So'ngal buloq", "Yara-chaqa buloq"lari mavjud. Ziyoratgoh qadamjodir. Har chorshanba kuni bu joyda qizlar kokil kestiradi hamda farzand ko'rmaganlar o'zlariga farzand tilaydilar

 **Qo'rg'ontepa tumani 40°44'51.2"N 72°55'46.8"E**

FOZILMON OTA ZIYORATGOHI




 17:00-17:30

Ming bir dardga da'vo bulog'ining hayotbaxsh tirik suvlaridan necha asrlar davomida ko'plab odamlar shifo topib keladi. XIII asrda yashab o'tgan diniy ulamo, Sayid Fozilmon Dehlaviy nomi bilan bog'liq bo'lib, olamdan o'tgach shu joyga dafn qilingan. XVI asr oxirida kelgan kuchli sel natijasida Fozilmon ota maqbarasi tekislanib, loyqa ostida qoladi. 1805 yilda diniy ulamo, o'zbek mumtoz adabiyotining vakili shoir Xo'jamnazar Xolmuxammad o'g'li Huvaydoning o'g'li Xolmuhammad Eshon ibn Xuvaydo tomonidan qabr o'rni aniqlanib, maqbara qayta tiklanadi.

 Xonobod shahri 40°48'53.8"N 72°59'19.3"E

"OLTIN O'RDA" SAYYOHLIK MAJMUASIDA KECHKI OVQAT



 17:00-17:30

 Xonobod shahri, "Istiqlol" mahallasi, 70.



2 KUN  09:00-10:00 MEHMONXONADA NONUSHTA

"QALA" MEMORCHILIK YODGORLIGI




 10:30-11:00

Chor Rossiyasi harbiy qismi uchun mudofaa qo'rg'oni sifatida bunyod etilgan. Qal'aning 10 metrdan ortiq baland bo'lgan devorlaridan Andijon shahrining har mahalla va ko'chalari kaftdek ko'rinib turgan va shu joydan turib isyonlarni bostirish imkoniyati bo'lgan. Uning bir necha kazarma binolari, qurol aslaha omborlari, oshxona, to'pxonalardan iborat mudofaa qo'rg'oni bo'lgan. Qal'ada Chor Rossiya armiyasining Turkiston asosiy muntazam harakatdagi bataloni 4-5-rotalariga tegishli 250 dan ortiq askarlari turgan.

 Andijon shahar 40.75853677270072, 72.37023908552065

BOG'I BOBUR MILLIY ISTIROHAT BOG'I



 11:15-12:15

Andijon shahrining janubi-sharqida joylashgan "Bogi Bobur" milliy bog'i 1993-yilda davlat arbobi, mohir sarkarda va buyuk shoir Z. M. Boburning 510 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan. U Farg'ona vodiysidagi eng yirik turistik maskanlardan biri hisoblanadi. Mazkur bog'da Z. M. Boburning ramziy qabri barpo etilgan bo'lib, u yerga Qobuldagi haqiqiy dafn etilgan joyidan tuproq keltirilgan.

 Andijon tumani 40°43'19.2"N 72°26'20.8"E

"MEHMON VALIY" ZIYORATGOHI



 12:15-13:00

Andijon tumanni "Islomobod" MFYda joylashgan Mexmon valiy ziyoratgohi XVI-asr oxiri XVII asr boshlariga oid bo'lib, hozirda madaniy meros sifatida ro'yxatidan joy olgan

 Andijon tumani 40.721595, 72.451725

 13:00-14:00 TUSHLIK

YIGITPIRIM ZIYORATGOHI




 14:30-15:00

Yigitpirim ziyoratgohi — Buloqboshi tumanida joylashgan qadimiy va muqaddas ziyoratgohlardan biri hisoblanadi.

Bu joy mahalliy aholi va sayyohlar uchun ruhiy dam olish, duo o'qish va salomatlik tilab tashrif qilinadigan muhim maskan hisoblanadi. Ziyoratgohda an'anaviy diniy marosimlar va ziyorat tadbirlari muntazam o'tkazilib, joyning ma'naviy ahamiyati saqlanib kelmoqda. Yigitpirim ziyoratgohi — Buloqboshi tumanidagi muhim diniy va madaniy markaz bo'lib, u mahalliy aholi va turistlar uchun ma'naviy qo'llab-quvvatlash manbai hisoblanadi. Bu joy tarix, urf-odat va an'analarni saqlashda ham katta ahamiyatga ega.

 Buloqboshi tumani 40.570095, 72.581305

MANAK OTA ZIYORATGOHI



 15:15-15:45

"Manak ota" — O'zbekistonning Andijon viloyatidagi Imom ota qishlog'idagi ziyoratgoh, qadimiy me'moriy obidalardan biri. Bu ziyoratgohda islom tarixidagi mo'tabar zot Imom Muhammad Hanafiyning maqbarasi joylashgan. Ziyoratgoh XVIII asrda qurilgan va XIX asr oxirida ta'mirlangan, tarixiy yodgorlik sifatida tan olingan va davlat muhofazasiga olingan.

 Xo'jaobod tumani 40.6134976785569, 72.62464979203976

IMOM OTA ZIYORATGOHI




 16:00-17:00

Imom ota turistik qishlog'i O'zbekistonning Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida, Chilustun tizmasi etagidagi xushmanzara tog'li hududda, dengiz sathidan taxminan 1100 metr balandlikda joylashgan. Bu yerda Bobo Xorson deb atalgan Xuroson noibi Hazrat Alining o'g'li, uning o'g'li esa O'rta Osiyo hududida islom dinini yoyishga qo'shgan hissasi uchun Imom ota laqabini olgan. Qishloq o'zining ziyoratgohlari va inson qadami yetmagan tabiati bilan mashhur. Uning hududidan kichik bir daryo oqib o'tadi, daryo esa shifobaxsh xususiyatlarga ega muqaddas buloqdan boshlanadi.

 Xo'jaobod tumani 40°32'48.5"N 72°36'27.8"E

 17:00-17:45

ANDIJON SHAHRIGA QAYTISH



 18:00-19:00 KECHKI OVQAT  19:00-20:00

TURIZM KO'CHASI BO'YLAB SAYOHAT (24/7)

